

**BOSHLANG‘ICH TA’LIM O‘QITUVCHILARINI NAZARIY-METODIK  
TAYYORGARLIGINI INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA  
TAKOMILLASHTIRISH**

**Rajabova Mohinur Xushnudovna**

*Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti Samarqand filiali*

*“Boshlang‘ich ta’lim nazariyasi va metodikasi” yo‘nalishi magistranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining nazariy-metodik tayyorgarligini takomillashtirish, o‘qituvchini metodik jihatdan mahoratli bo‘lib yetishishida zarur bo‘luvchi integrativ yondashuvlar haqida kerakli manbalar nazariy jihatdan o‘rganilgan.

**Kalit so‘zlar:** zamonaviy metodlar, integrativ yondashuv, intellektual salohiyat, nazariy-metodik rivojlanish.

Barchamizga ma’lumki, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi o‘quvchilarining intellektual fikrlay olish salohiyati, aqliy rivojlanishi, o’zini-o’zi anglash salohiyatini shakllantirishi, moddiy borliq go’zalliklarini his eta olishga o’rgatishi, boshqalar fikrlarini tushunishini, shaxsiy fikrlarini og’zaki va yozma bayon eta olish hislatlarini shakllantirishga erishishi lozim. Shu o‘rinda bu masala yangi ta’lim tizimi, kadrlarni tayyorlashdagi o’zgarishlar va yangicha yondashuvlar, zamonaviy kasb sohalarining paydo bo’lgani hamda uning mamlakatimiz sharoiti bilan bog’liqligidir.

Ta’lim tushunchasi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot natijasida muayyan davrdan boshlab inson faoliyatining alohida mustaqil sohasiga aylanib, jamiyatning ijtimoiy tajribasini keyingi bosqichga uzatishi va ta’lim inson shaxsining intellektual-ma’naviy qirralarini shakllantirish, uning jamiyat ishlab chiqarish va ijtimoiy, siyosiy, madaniy, ma’rifiy hayotida faol va muvaffaqiyatli ishtirokini ta’minalashga qaratilgan harakatlar yig’indisi bo‘lib, ma’rifat hamda bilim berishni anglatadi.

Albatta, ta’lim sohasini isloh qilishni, avvalambor, boshlang‘ich ta’limdan boshlash zarurdir. Chunki, bolaning dunyoqarashi, didi, salohiyati shakllanadigan boshlang‘ich sinflarda eng yetuk, eng tajribali murabbiylar biriktirib qo‘yilishi darkor. Shu zaruratdan, maktab ta’limini, o’rta maxsus ta’lim tizimini, shu bilan birga oliy ta’limni ham tubdan isloh qilish rejalashtirilgan. Ta’lim sifatini yaxshilash va samaradorligini oshirishda moddiy omillar bilan bir qatorda, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarni o‘quvchilarni intellektual rivojlantirishga metodik tayyorgarligini takomillashtirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Chunki, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarni o‘quvchilarni intellektual rivojlantirishga metodik tayyorgarligini takomillashtirish bugungi kun davr talablariga muvofiq kelajak avlod kadrlarini tayyorlashni davrning o’zi taqozo etmoqda.

Ko‘plab pedagoglar o‘z ilmiy ishlarida boshlang’ich sinf o’qituvchilarning metodik tayyorgarligini rivojlantirish, ta’lim vositalarini rivojlantirish, matematik tafakkurni rivojlantirish borasida o’quvchilar savodxonligini oshirishga oid ishlarni tahlil qilgan. Bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarida metodik tayyorgarlikni takomillashtirishda zamon talablaridan kelib chiqib yondashish albatta muximdir. Bunda o’qituvchilarning metodik tayyorgarligini oshirish uchun, ularda zarur pedagogik bilimlar (o’qituvchi mehnati, uning pedagogik faoliyati xususiyatlari, muloqot, shaxs to’g’risida, o’quvchilarning psixik rivojlanishlari, ularning yosh xususiyatlari to’g’risidagi psixologiya, pedagogik ma’lumotlar), ko’nikmalar (etarlicha yuqori darajada bajarilgan xatti-harakatlar) shakllantirish lozim.

Jumladan, A.K.Markova boshlang’ich sinf o’qituvchilarning metodik tayyorgarligini “mustaqil va mas’uliyatli ishlashga imkon beruvchi psixik holat, inson mehnatining natijalaridan iborat bo’lgan, insonning ma’lum mehnat vazifalarini bajarish qobiliyati va ko’nikmasi” sifatida e’tirof etadi. O’qituvchi kasbi ijodiy yondashuv talab etadigan kasb va o’qituvchi o’quvchining intellektini rivojlantirish bo’yicha ulkan imkoniyatlarga ega. Maktab o’quvchilarida intellektni intellektual fikrlovchi o’qituvchilar rivojlantirishi lozim. Biroq bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchisini o’quvchilarda ijodkor shaxsni rivojlantirish bo’yicha ishlari samarali kelishini ta’minlovchi metodik bilimlar bilan qurollantirish o’qituvchilarni kasbiy-pedagogik tayyorlashning juda muhim va istiqbolli qismi sanaladi.

Bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarning metodik tayyorgariligi ustida ishslash jarayonida talabalarga nafaqat ilmiy bilimlar berish bilan cheklanib qolmay o’rganilgan bilimlarni amaliy jarayonda qo’llay olish ko’nikma va malakalarini ham shakllantirib borilishiga alohida ahamiyat berish lozim. Xusan, boshlang’ich ta’lim fanlarini amaliy o’rgatish, muntazam va izchil o’rgatish, namunalar va maxsus mashqlar asosida o’rgatish, turli xatolarning oldini olish va ularni to’g’rilash orqali bajarish kabi o‘z ustida ishlovchi amaliy vazifalarni bajarish orqali singdirib borish muhim hisoblanadi. O’quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda, barcha o’quv fani dasturidagi mavzularni puxta o’zlashtirilishiga yordam beradigan, mustaqil fikr yuritish, fikrini erkin ifodalash, boshqalar fikrini tinglash, mulohaza yuritish, ulardan eng muhimlarini ajrata olish, o’z fikrini ilgari surish, uni dalillash, umumlashtirish va xulosalashga o’rgatish, o’qituvchining til materialidan foydalanishga qiziqish uyg’otish, unda amalda foydalanish ehtiyojini yuzaga keltirish hozirgi kun talabi sifatida o’rganilmoqda.

Boshlang’ich sinflarda har bir o’qituvchining dars berishi, alohida olingan integratsiyaning bir usuli deb qarasak, fanlararo aloqadorlikni ilmiy jihatdan asoslash maqsadida uning metodologik-didaktik infratuzilmasini vujudga keltirish, ta’lim jarayonida qo’llanilayotgan ilg‘or pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda o’quv fanlarining o‘zaro aloqadorligini ta’minlash lozim. Boshlang’ich sinf

o‘quvchilarining yosh xususiyatlariga javob beradigan va dars talablariga mos keladigan, maqsadni aniqlash bunday yangilanishning asosiy masalasidir. Boshlang‘ich maktabda integratsiyani amalga oshiruvchi bo‘g‘in vazifasini o‘qituvchining o‘zi amalga oshiradi. U bolalarga matematika, o‘qish, tabiat haqidagi boshlang‘ich tushunchalarni va yana ko‘pgina narsalarni o‘rgatadi. O‘qituvchi o‘zining kuch va imkoniyatlari darajasida bu ishni amalga oshiradi. Didaktik tizimda predmetlararo asosda integratsiyalash o‘qituvchi (ta’lim berish ) va o‘quvchi (ta’lim olish )harakatlarining mos kelishini ko‘zda tutadi. Ikkala faoliyat ham umumiy tuzilishga ega: maqsadlar, sabablar, mazmun, vositalar, natijalar, nazorat. Dars jarayonida fanlararo aloqadorlikni ta’minlash asosida o‘rganilayotgan hodisalarning mohiyati, sabab-oqibatli bog‘liqliklarini tushuntirishga qaratilgan bo‘lishi, masalan, o‘qish darslarida qish fasliga doir she’r yoki matnni o‘qishdan oldin o‘qituvchi mavzuni tabiatshunoslik bilan bog‘liqligi haqida “tabiatshunoslik darsida biz qish faslida bo‘ladigan tabiat hodisalarini, undagi o‘zgarishlarni o‘rganadilar.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, boshlang‘ich ta’limdagi o‘qish darslarini ona tili, odobnama, shuningdek, rasm, tabiatshunoslik, mehnat fanlari bilan bog‘lab o‘quvchilarining tassavurlarini boyitish eng asosiy vazifalardan biridir. Chunki bunday darslar o‘quvchilarni ijod qilishga, mustaqil fikrlashga o‘rgatadi.

### Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Л.Н.Бухарева Интеграция учебных занятий в начальной школе на краеведческой основе. (“Начальная школа”, 1991 № 8).
2. Khandamova Feruza Bakhodirovna. (2023). TEACHER’S SPEECH: GIVING INSTRUCTION TO LEARNERS IN FOREIGN LANGUAGE CLASSES. *Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities*, 2(7), 6–10.
3. Murodova M. M. BO‘LAJAK BOSHLANG’ISH SINF O‘QITUVCHILARI FAOLIYATIDA PEDAGOGIK DEONTALOGIYA VA KOMPETENTLIK //Scientific progress. – 2022. – T. 3. – №. 1. – C. 90-97.
4. Murodova M. M. BOSHLANG ‘ICH SINFLARDA MATEMATIKA FANINI TABIATSHUNOSLIK FANI BILAN INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA TASHKIL ETISH //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 77-79.
5. R.A. Mavlonova va boshq. Boshlang‘ich ta’limning integratsiyalashgan pedagogikasi. T., TDPU, 2007.
6. Solijonovna, Umarova Oyzoda. "LINGUACULTURAL AND SOCIOLINGUAL FEATURES OF ENGLISH-UZBEK PAINTING TERMS." PEDAGOG 1.3 (2022): 605-611.